

KULOLCHILIK SAN'ATIDA XALQ AMALIY BEZAK SANPATINING O'RNI

Usmonov Sardor Ismoiljonovich

Namangan Davlat Universiteti

"Tasviriy va amaliy Bezak San'ati fakulteti

2 kurs Magistratura talabasi"

Annotatsiya: *Kulolchilik qora loydan mo'jizakor go'zallik yaratgan SHarqning eng qadimiy hamda navqiron san'atidir. Bu qora loy, saxovat, halollik, ezigulik timsolidir. Tuproq insonlarning barcha extiyojini o'z zimmasiga olgan farovonlik, to'kinlik, rizq-ro'z, go'zallikning eng oliy ko'rinishi san'atining zaminidir Amaliy san'at"tushunchasi "badiiy hunarmandchilik", "amaliy-bezak san'ati" deb ham yuritiladi. Ushbu tushunchalarni - amaliy san'at buyumlarining ikki xil tabiati, ya'ni bir-biri bilan bog'liq badiiy va amaliy vazifalari o'zaro birlashtiradi. Chiroyli naqshlar bilan bezatilgan lagan yoki xontaxta esa amaliy san'at asaridir. O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'ati madaniy merosimizning asosiy qismini tashkil etadi. O'zbek diyorida vujudga kelib, gullab yashnagan amaliy san'at turlari bemisil va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bu taraqqiyot bosqichi haqida fikr yuritar ekanmiz, O'zbek amaliy bezak san'atining kelib chiqishi insoniyatning ilk davri, ya'ni ibtidoiy jamoa davriga borib taqalishining guvohi bo'lamiz haqida so'z olib boriladi.*

Kalit so'zlar *bezak, mehnat quroli, amaliy san'at, kulolchilik texnologiya, naqsh, kompozitsiya, kolorit, dinamik.*

KIRISH

Inson azaldan ham o'z makonini bezashga, uni go'zal san'at namunalari bilan boyitishga harakat qilgan. Hozir ham shunday. Keyingi yillarda Respublikamizda xalq amaliy san'atining necha o'nlab turlari rivojlantirilmoqda. Shu bilan birga qadimiy yodgorliklarni saqlash ularni qayta tiklash, ta'mirlash ishlariga keng yo'l ochib berilmoqda. Jumladan Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon va Toshkent obidalari qayta tiklanmoqda, ularni tiklashga xalq ustalari jalb etilib, ustalar o'z shogirdlari bilan birgalikda obidalariga sayqal berishmoqda. Naqqoshlik san'ati ancha rivojlantirilib, turli xil zamonaviy binolarga zeb berish ishlarida keng qo'llanilmoqda. Naqqoshlik namunalarini, ayniqsa, choyxona, oshxona va madaniyat saroylarida ko'ramiz. Bunday yangi binolarni ko'rib ko'zimiz quvonadi, dilimiz yayraydi va zavq oladi. Ganch oyish va gul solish hunari o'zbek xalq amaliy san'atida katta o'rin tutadi. Issiq kunlarda oppoq sathli ganchlik devor xonani sovuq tutadi, biroq bezagini ko'zdan kechirsangiz, o'sha oppoq va nafis bezaklar qalbingizni isitadi. Darhaqiqat, xonadondagi ganch oymakorligi, jihoz yoki naqsh uyni jonlantirib yuboradi. O'zbekiston xalq amaliy san'atining juda keng tarqalgan turlaridan biri kulolchilikdir. Milliy tovoq bejirim kosalar, piyola, nafis ko'za va vazalarga bugungi kunda ham talab katta. Tarix muzeylariga kirar ekansiz, ularga nafis va jozibador, ayniqsa, xalq hunarmandchiligi asarlari

sizni qoyil qoldiradi. Siz yoqtirgan ayrim san'at turlari bo'yicha o'quvhilar kuchini sinab ko'rishga, o'z qo'llari bilan uyiga chiroyli jihozlar, do'stlariga atab nafis sovg'alar yasashga o'rgating. Unda bu ishlarni bajarishdagi zarur materiallar, asbob uskunalarni o'zingiz tayyorlansangiz bo'ladi. Materiallarni esa magazin va boshqa savdo tarmoqlaridan xarid qilishingiz mumkin. Badiiy kulolchilik arxeologik qazilmalardan ma'lumki, odamlar eramizdan ilgari ham kulolchilik sirlaridan voqif bo'lgan. Qadim zamonlardan oq odamlar kundalik turmushda xar xil kulolchilik buyumlaridan foydalangan. Inson asta sekin suv saqlash uchun foydalanadigan ko'zalarga, xonani yoritish uchun zarur bo'lgan shamdonlarga ovqatlanishda kerak bo'lgan kosa-tavoqlarga bezak bergan. Avvalo, qo'pol idish-tovoq ko'zalar va xumlar yaratilgan bo'lsa, bora-bora bu buyumlar nozik, yengil, go'zal va nafis shakllarga keltirilgan. Shu tariqa kulolchilik nasldan-naslga o'tib, bizgacha bosib o'tgan davrda xalq ommaviy san'atiga noyob san'at turiga aylanadi. Bu san'atni mukammal o'rganish uning nozik sirlarini bilish uchun kulolchilikka qiziqishgina kifoya qilmaydi. Kulolchilikning nafis mahsulotlari, avvalo, tayyorlanadigan loyga ko'p jihatdan bog'liqdir. "Ishlov bersang loyga xo'p, undan chiqar sayqal ko'p",- deb xalqimiz bekorga aytmagan. Kulolchilikdagi loy oddiy loydan farq qilib, uni kulolchilar o'zlarining uzoq yillik tajribasi tufayli izlab topishgan. Bu loy qayishqoq va yopishqoq holatda bo'ladi. Kulol e'tiborini, asosan, loy tayyorlashga qaratish uni qayta-qayta maydalab mayda ko'zli elakdan o'tkazib, juda mayin qilib ishlashi lozim. Loyni qorishtirish gips yoki albastr plita ustida bajarilsa, ish yanaham osonroq ko'chadi, sababi loyni qorganda yoki elaganda loy tarkibidagi suvni ganch yoki albastr o'ziga tortib oladi. Loy pishib tayyor bo'lgandan keyin bu loyni nam matoga o'rab qo'yiladi. Pishgan loy qo'lga yopishmaydi. Plastilindek egiluvchan bo'ladi. Ilgarilari kulollar ko'zalarini va boshqa sopol idishlarini yasashda oyoq charxidan foydalanganlar. Shu charx nafis ko'zalar va idish tovoqlar yasashda kulolning haqiqiy ish quroliga aylangan. Hozirgi paytda charxlar elektr toki yordami bilan ishlatilmoqda.

Kulolchilik loydan mo'jizakor go'zallik yaratilgan Sharqning eng qadimiy hamda navqiron san'atidir. Bu qora loy saxovat, halollik, ezgulik timsolidir. Tuproq insonlarning barcha ehtiyojni o'z zimmasiga olgan farovonlik, to'kinlik, rizq-ro'z, go'zallikning eng oliy ko'rinishi sifatida bu san'atning asosidir. O'zbek kulolchiligi uzoq tarix, ajoyib an'analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega. Kulolchilik hunari loydan piyola, kosa, tovoq, ko'za, lagan, xurmacha, tog'ora, xum, tandir, buyum, o'yinchoqlar, qurilish materiallari va boshqalar tayyorlanadigan sohadir. Maxsus tuproqni o'ta qizdirganda toshsimon bo'lib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan – neolit davrining boshlaridayoq bilganlar. Ular avval loydan idish-tovoqlar yasab, gulxanda qizdirib pishirganlar. Tuproq jahonning hamma joyida bo'lgani uchun kulolchilik keng tarqalgan bo'lib, dastlab bu hunar bilan ayollar shug'ullanganlar. Kulolchilik charxi miloddan avvalgi uch mingyillikning boshlarida ixtiro qilingandan keyin bu san'at bilan erkaklar shug'ullana boshlaganlar. Keyinchalik loydan yasalgan idish tovoqlarni maxsus o'choq hamda xumdonlarda pishirganlar. VIII-XII asrlarda kulolchilik O'rta Osiyoda yaxshi rivojlangan. Buni Afrosiyobda va O'rta Osiyoning boshqa erlarida topilgan kulolchilik

buyumlari isbotlab berdi. O'sha davrda O'rta Osiyo madaniyati tez sur'atlar bilan rivojlandi. Ko'pgina olim, yozuvchi va mutafakkirlar, ya'ni Abu Ali Ibn Sino, Beruniy, Firdavsiy, Ro'dakiylar etishib chiqdi. Butun dunyoga mashhur bo'lgan me'morchilik yodgorliklari bunyod etildi. XIII asrda mo'g'ullar bosqinchiligi oqibatida Buxoro, Samarqand, Urganch, Mavr, Balx yong'in ostida qoldi. Oqibatda kulolchilik san'ati rivojiga putur yetdi. XIV asrdan boshlab, O'rta Osiyo territoriyasida kulolchilik tez sur'atlar bilan rivojlandi. XIX asrga kelib, kulolchilik maktablari tashkil bo'la boshladi. O'rta Osiyoda suvga bo'lgan ehtiyoj katta bo'lganligi uchun sopol idishlarni tez sur'atlar bilan ishlab chiqarishga ehtiyoj sezildi. Asrlar osha ularning shakl va bezagi nafislasha bordi. Ustalar turli-tuman kulolchilik buyumlarini yasashdan tashqari ularni yuksak did bilan bezay boshladilar. XIX asrda O'rta Osiyoda tojik va o'zbek xalqlari o'rtasida kulolchilik juda keng taraqqi topib, G'ijduvon, Panjakent, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo'ldi. 1932-yilda Toshkentda o'quv ishlab chiqarish tashkil etilib, u yerda xalq amaliy san'ati ustalari shu qatori kulollar tayyorlaydigan kurslar tashkil etildi. Kulolchilik sir-asrorlarini mashhur kulollar yoshlarga sidqidildan o'rgatdilar. Bular: rishtonlik Muhammad Siddiq, Usmon Umarov, toshkentlik Turob Miraliyev, shahrisabzlik Rustam Egamberdiyev, Karim Hazratqulov va boshqalar edi. Ayniqsa, kulolchilikni tatbiq etishda O'zbekiston xalq rassomi, san'atshunoslik nomzodi Muhiddin Rahimov samarali mehnat qildi. U o'ziga xos kulolchilik maktabini yaratib, xalq san'atiga oid bir qancha asarlar va ajoyib shogirdlar qoldirdi

Xulosa: Har bir hunarni o'ziga xos mashaqqatli va o'ziga xos sir-asrorlari bo'ladi. Qadimdan ota-bobolarimiz badiiy kulolchilik sirlarini va tajribalarini faqat o'z shogirdlariga o'rgatib o'zga bolalarga o'rgatmaganlar. Ota-bobolarimiz asrlar mobaynida kulolchilik sir-asrorlarini o'rganib har bir mahsulotni ayniqsa sifatiga, badiiyligicha, foydalanish qulayligiga va uning umrboqiyiligiga alohida e'tibor berib kelganlar. SHuning uchun ular tayyorlagan oddiy sopol piyolasidan tortib sharq me'morchiligini bezab turgan koshinlarning umrboqiyiligi dunyo ahlini lol qoldirmoqda. Ha, bunga erishish uchun ota-bobolarimiz yuqori sifatli g'oyat chidamli hamda davr sinovlaridan o'tgan materiallardan keng foydalanib kelganlar. O'tmishda tuproqdan, qorachiroq, shamdon, sarxona, jomashov, xum hamda ovqat pishiriladigan sopol idishlar tayyorlangan, lekin keyingi vaqtga kelib bularga ehtiyoj bo'lmagani uchun ular yo'qolib bormoqda. Hozir tovoq, guldon, lagan, piyola, tandir va boshqalar ko'p ishlab chiqarilmoqda. Kulolchilikda asosiy xom ashyo tuproqdir. Tuproqlarning sog' tuproq, qora tuproq, ko'kimtir, qizil loykor turlari bo'ladi. Kulolchilikda ishlatiladigan loy o'zining xususiyati va ishlatiladigan buyumiga qarab bir necha gruppalariga bo'linadi. Badiiy to'qimachilik, chinni, shisha, kulollik buyumlari ko'rgazmalarda tez-tez namoyish etilmoqda, ayni paytda shahar maishiy, me'moriy va boshqa muhitini boyitish vositasiga aylanmoqda. Jumladan an'anaviy bo'lmagan kulollik, gobelen tayyorlash rivojlanmoqda, ustalarning ishlari ko'rgazmalarda namoyish etilmoqda. 70-yillardan kulollik asarlari Toshkent va boshqa shaharlardagi jamoat binolarini bezamoqda: Xalqlar do'stligi saroyi, "Chorsu" mehmonxonasi, Toshkent metropoliteni bekatlari va boshqa O'zbekiston

respublikasi mustaqilligi Xalq an'anaviy Amaliy san'atning yangidan tiklanishi va rivojlanishi har yili Navro'zda o'tkaziladigan Amaliy san'at asarlari ko'rgazmasida namoyon bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.A1_П.Қодирхўжаев - Бадий безак санъати 2008.
- 2.A8_Д.Нозилова - Ўрта осие дизайни тарихидан халқ амалий -бадий санъти 1998
- 3.Q1_Л.Жадова. Современная керамика узбекистана 1963
4. A4_К.Фуломов - Амалий санъат 2007